BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAYDAROVA NODIRABEGIM AHTAMJON QIZI

BADIIY TARJIMADA INTERDISKURSIVLIK VOQELANISHINING LINGVOMADANIY PARAMETRLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 811.111'42'255.2:008+811.512.133'42'255.2:008

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) degree in Philology

Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi
Badiiy tarjimada interdiskursivlik voqelanishining lingvomadaniy parametrlari.....3

Хайдарова Нодирабегим Ахтамжон кизи
Лингвокультурные параметры реализации интердискурсивности в художественном переводе.....21

Haydarova Nodirabegim Akhtamjon kizi
Linguocultural parameters of the interdiscursivity realization in literary translation.....43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAYDAROVA NODIRABEGIM AHTAMJON QIZI

BADIIY TARJIMADA INTERDISKURSIVLIK VOQELANISHINING LINGVOMADANIY PARAMETRLARI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil3006 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qosimova Nafisa Farhodovna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Sharipova Laylo Frunzeyevna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Sadullayeva Nilufar Azimovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «10» noyabr soat 1000 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-57, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1082 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «29» oktabr kuni tarqatildi.

(2026-yil «29» oktabr dagi 26-12- raqamli reyestr bayonnomasi).

O.M. Fayzulloyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.R. Ochilova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Z.Q. Amonova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi va tarjimashunosligida badiiy diskurs doirasida kuzatiladigan murakkab nutqiy hodisalarni, jumladan, interdiskursivlik elementlarini o‘rganishga zamonaviy ilmiy paradigma doirasida tobora ortib borayotgan qiziqish kuzatilmoqda. Bu jarayonda matnda ifodalangan ma’nolar nafaqat lingvistik shakllar orqali, balki madaniy, tarixiy va ijtimoiy konnotatsiyalar orqali ham namoyon bo‘ladi. Shu bois, ularni tarjima qilish jarayoni nafaqat til birliklarini adekvat qayta ifodalashni, balki kontekstni chuqur anglash, madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish va muallif niyatini to‘g‘ri interpretatsiya qilishni talab etadi. Ayniqsa, interdiskursiv birliklarning tarjimada qayta yaratilishi matnning funksional-estetik mazmunini saqlab qolish, uning o‘quvchiga ta’sir kuchini yo‘qotmaslik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tarjimashunosligida globallashuv sharoitida turli madaniyatlarga mansub badiiy matnlarning o‘zaro almashinuvi interdiskursivlik hodisasining ilmiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bunda badiiy matnda turli diskurslarning o‘zaro ta’siri, ularning lingvomadaniy xususiyatlari va tarjimada qanday aks ettirilishi masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Interdiskursivlikni aniqlash va uni tarjima jarayonida to‘g‘ri qayta tiklash madaniyatlararo muloqot samaradorligini ta’minlash, shuningdek, asar mazmunini to‘liq va adekvat yetkazishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot badiiy tarjima sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, interdiskursivlikning kommunikativ-funksional va kontekstual xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va global yuksalish bosqichida O‘zbekiston Respublikasining ilm-fan va intellektual salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, Harakatlar strategiyasi doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hamda ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish kabi ustuvor masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda[1]. Bu esa o‘zbek tarjimashunosligi sohasida ham fundamental va amaliy tadqiqotlarni jahon standartlari darajasiga olib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur yo‘nalishda tarjimashunoslikning antropotsentrik paradigma asosida shakllangan zamonaviy kognitiv yo‘nalishlari doirasida nutq aktlari, ularning lingvistik-kommunikativ va kontekstual-pragmatik xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, nutq aktlarining lokutiv va illokutiv o‘lchamlari, ularning funksional salohiyatini tarjimada qayta yaratish usullari hamda tarjima me’yorlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday tadqiqotlar nafaqat jahon tarjimashunosligida o‘z yechimini kutayotgan muammolarni yoritishga xizmat qiladi, balki tarjimaning lingvomadaniy va konseptual xususiyatlarini chuqur anglash hamda uni amaliy jihatdan takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi 2017-yil, 8-fevral. № 28 (6722).

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarjima masalalari, uning diskursiv yondashuv doirasida shakllangan nazariyalari, jumladan, tarjima va diskurs, tarjima va interdiskurs munosabatlari, tarjima kontekstida interdiskursning voqelanish shartlari, badiiy tarjimada diskursiv munosabatlarni qayta yaratishda tarjima strategiyalaridan foydalanishning lingvomadaniy masalalari jahon va o‘zbek tarjimashunosligida keng ko‘lamda tadqiq etilgan. Xususan, L.Venuti, B.Xatim, I.Meyson, F.Shleyermaxer, I.V. Voynich, N.K.Garbovskiy, A.Chesterman, U.Eko, V.Lorsher, Yu.Sorokin, K.I.Leontyeva, N.G.Valeyeva, Y.A.Nayda, M.A.Beyker, S.Bassnett, J.Mundey, G.Tury, L.P.Seyvori, A.D.Shveytser ,G‘.Salomov, Q.Musayev, R.G‘.Rahimov, Sh.Safarov, M.K.Baqoyeva, D.U.Ashurova; Sh.Usmonova, N.Qambarov, R.X.Shirinova, N.F.Qosimova, R.R.Kasimova va boshqa olimlar ishlarida tarjimaning nazariy va amaliy masalalari, badiiy tarjima muammolari, tarjima va diskurs munosabatlari, tarjimada diskursiv munosabatlarni qayta yaratishda tarjima strategiyalarining ahamiyati, tarjimada kognitiv faoliyat mexanizmlari, lingvomadaniy tarjimada madaniy transfer muammosi kabi masalalar, shuningdek, forenizatsiya (xorijiyilashtirish) va domestikatsiya (mahalliylashtirish) tarjima strategiyalari, tarjimaning madaniy va pragmatik aspektlari masalalari keng ko‘lamda o‘rganilgan[2].

[2] Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 2008. – 336 p.; Hatim B., Mason I. Discourse and the Translator. – London: Longman, 2001. – 258 p.; Schleiermacher F. D. E. On the Different Methods of Translating // The Translation Studies Reader / ed. by L. Venuti. – 3rd ed. – London: Routledge, 2012. – P. 43–63; Гарбовский Н. К. Теория перевода:учебник. – 2-е изд. – Москва: Изд-во МГУ, 2007. – 542 с.; Chesterman A. Memes of translation. The Spread of Ideas in Translation Theory. Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1997. – 219 p.; Эко У. Сказать почти то же самое. Опыты о переводе / У. Эко. Санкт-Петербург: symposium, 2006.; Lörscher W. Think-aloud as a method for collecting data on translation processes. In:S.Tirkkonen-Condit (ed). Empirical Research in Translation and Translation Studies, 1991. – P. 67-77.;Сорокин Ю.А. Введение в этнопсихолингвистику. − Ульяновск: Ул.ГУ, 1998. – 138 с.; Леонтьева К. И. Универсалии поэтического (стихотворного) перевода (на материале русских переводов из англоязычной поэзии XX века) : Дисс… канд. филол. наук. – Тверь, 2013. – 262 с.; Валеева Н.Г. Введение в переводоведение: Курс лекций. – Москва: Изд-во РУДН, 2006. – 85 с.; Nida E.A. Language and Culture: Contexts in Translating. – Shanghai: Shanghai Foreign Language Education Press, 2001. – 288 p.; Baker M., Saldanha G. Routledge Encyclopedia of Translation Studies. –

Badiiy diskurs va uning madaniy xoslanganligi, badiiy adabiyotda interdiskursivlik masalalari, interdiskursivlikning semantik va pragmatik vositalari, badiiy tarjimada interdiskursivlikni qayta yaratish hamda uning lingvomadaniy parametrlari jahon va mahalliy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunosligida V.Y.Chernyavskaya, O.S.Sachava, Y.V.Beloglazova, A.A.Gordiyevskiy, M.S.Malisheva, Y.V.Rotanova, N.Feyrklo, M.Fuko, M.Baxtin, J.Vu, Ch.Noy, M.J.Safarova tomonidan o‘rganilgan bo‘lib[3], ushbu olimlarning ishlarida badiiy adabiyotda, badiiy matnda interdiskursivlik munosabatlarining shakllanishi, badiiy matnda diskurslar qorishuvining semantik va pragmatik markerlari, hamda bu xususiyatlarni tarjimada qayta yaratish bilan tarjima strategiyalarini qo‘llash usullari masalalari keng va chuqur tadqiq etilgan.

Mazkur dissertatsion ishda badiiy tarjimada interdiskursivlik voqelanishining lingvomadaniy parametrlari aniqlanib, ularni tarjima jarayonida qayta yaratish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasining yillarga mo‘ljallangan “Adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjima ishi” (2023-2026-y.y.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

3rd ed. – London: Routledge, 2019; Bassnett S. Translation Studies. – London; New York: Routledge, 2000. – 168 p.; Munday J. Introducing Translation Studies. – London; New York: Routledge, 2001. – 222 p.; Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1995. – P. 103–105; Langlois P. Savory, Theodore, The Art of Translation. London, Jonathan Cape, 1957 //Journal des traducteurs. – 1959. – T. 4. – №. 2. – С. 102-103. Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. Изд. 4-ое, – Москва: URSS, 2019. – 216 с.; Саломов Ғ. Таржима санъати. – Тошкент, 1985. – 263 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.; Раҳимов Ғ.Х.Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 2016. – 176 б.; Сафаров Ш. Когнитив таржимашунослик. Монография. – Самарқанд, 2019. – 354 б.; Сафаров Ш. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. Монография. – Тошкент: “Наврўз”, 2019. - 300 б.; Бақоева М.Қ. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. – Тошкент: Фан, 2015. – 288 б.; Ашурова Д. У. Теория текста с позиций когнитивно-дискурсивной парадигмы // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №3. С. 505-511; Usmanova Sh. R. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2019. – 191 b.; I.G‘ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma, – Toshkent, 2012. – 110 b.; Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент: 2017. – 56 б.; N.F.Qosimova. Tarjima kognitiv mexanizmlarida psixolingvistik qoliplar ishtirokining lingvofalsafiy shartlanishi: filol. fan. doktori diss... – Buxoro, 2024. – 251 b.; R.R.Kasimova. Bevosita o‘girmalarda muallif va tarjimon psixologiyasi (ingliz hamda o‘zbek mutarjimlari faoliyati misolida): filol. fan. doktori diss... – Buxoro, 2024. – 246 b

[3] Чернявская В.Е. Лингвистика текста: поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность: учебное пособие. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 248 с.; Сачава О.С. Текстообразующий потенциал инсценируемой интердискурсивности (на материале современного немецкого языка): дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 201 с.; Белоглазова Е.В. Дискурсная гетерогенность литературы для детей (когнитивный и лингвопрагматический аспекты): дис. ... д-ра филол. наук. – Санкт-Петербург, 2010. – 400 с.; Гордиевский А.А. Категория интердискурсивности в научно-дидактическом тексте (на материале лекций на русском и немецком языке): дис. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2006. – 170 с.; Малышева М.С. Языковые маркеры исторического дискурса в поэтическом тексте (на материале произведений И.А. Чернухина): дис. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2020. – 186 с.; Fairclough N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. – London; New York: Routledge, 2013. – 608 p.; Фуко М. Археология знания. – Киев: Ника-Центр, 1996. – 206 с.; Bakhtin M.M. The Dialogic Imagination: Four Essays. – Austin: University of Texas Press, 2010. – Vol. 1; Wu J. Understanding Interdiscursivity: A Pragmatic Model // Journal of Cambridge Studies. – 2011. – Vol. 6. – No. 2–3. – P. 95–114; Wu J.-G. Studies on Interdiscursivity // Sino-US English Teaching. – 2012. – Vol. 9. – No. 7. – P. 1312–1317; Bartesaghi M., Noy C. Interdiscursivity. University of South Florida, USA. – 2023; Safarova M.J. Pretsedent tuzilmalar siyosiy diskursda faollashuvining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (nemis va o‘zbek tillari misolida): filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Samarqand, 2024. – 128 b.

Tadqiqotning maqsadi badiiy tarjimada interdiskursivlik voqelanishining lingvomadaniy parametrlarini aniqlash va ularni tarjima jarayonida qayta yaratish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

diskurs va interdiskurs tushunchalarining nazariy asoslarini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tizimli ravishda tahlil qilish;

badiiy diskursning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning matn mazmunini shakllantirishdagi o‘rnini belgilash;

interdiskursivlikning semantik va pragmatik markerlarini tavsiflash, ularning funksional yuklamasini ochib berish;

badiiy tarjimada interdiskursivlikni qayta yaratish mexanizmlarini o‘rganish va ularning samaradorligini asoslash;

madaniy transfer jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish;

interdiskursivlikni tarjimada ifodalash strategiyalarini (forenizatsiya va domestikatsiya) asoslash va ularning qo‘llanish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari, uning O.Mo‘minov (“Affairs of Life”) hamda va M.Riz va A.Ro‘ziyevlar tomonidan (“Such is Life”) ingliz tiliga bevosita amalga oshirilgan tarjimalari; U.Tevisning “Queen’s Gambit” asarining M.Po‘latova tomonidan (“Qirolichaning yurishi”), X.Husayniyning “And The Mountains Echoed” asarining M.Norova tomonidan (“Tog‘lar ham sado beradi”) o‘zbek tiliga bevosita amalga oshirilgan tarjimalari va ularda kuzatiladigan interdiskursivlik hodisalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini badiiy tarjimada interdiskursivlikning lingvomadaniy parametrlarini ifodalash va qayta yaratish tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvomadaniy tahlil, diskursiv tahlil, pragmatik tahlil, kontekstual tahlil, qiyosiy-tarjimaviy tahlil va interpretativ tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy tarjimada interdiskursivlikning lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo‘lishida kommunikativ-funksional yondashuvning ustuvorligi hamda diskurslararo aloqadorlikning semantik-pragmatik, lingvomadaniy va kommunikativ-funksional sathlarda, xususan, turli diskurslarga xos lisoniy markerlar, madaniy kodlar va pragmatik vazifalarning o‘zaro integratsiyalashuvida namoyon bo‘ladigan tizimli xarakterga egaligi asoslangan;

interdiskursivlikning semantik va pragmatik markerlari badiiy matnda kontekstual omillar, muallif niyati va madaniy kodlar ta’sirida voqelanishi hamda ularning kommunikativ yuklama hosil qilishdagi roli va badiiy tarjimada interdiskursiv birliklarni qayta yaratishda kontekstga moslashish, pragmatik adekvatlik va mualliflik pozitsiyasini saqlash kabi tarjima mexanizmlarining ustuvorligi dalillangan;

interdiskursivlikni tarjimada ifodalashda forenizatsiya va domestikatsiya strategiyalarining o‘zaro uyg‘un qo‘llanishi hamda ularning milliy-madaniy asimmetriyani bartaraf etish darajasi, tarjima tilining me’yorlari, o‘quvchining lingvomadaniy kompetensiyasi, fon bilimlari va matnni idrok etish xususiyatlari kabi omillar bilan bog‘liqligi aniqlangan;

madaniy transfer jarayonida interdiskursiv birliklarning semantik, estetik va pragmatik yuklamasi diskurslararo transformatsiya, madaniy ma’nolarning qayta talqin qilinishi hamda funksional muvofiqlik darajasi kabi omillar ta’sirida shakllanishi va ularning tarjimada mazmuniy-estetik yaxlitlik hamda kommunikativ ta’sirchanlikni ta’minlashdagi o‘rni isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy tarjimada interdiskursivlikni aniqlash va tahlil qilish uchun lingvomadaniy hamda diskursiv yondashuvlarga asoslangan amaliy metodika ishlab chiqilgan va uning badiiy matnlar tahlilida qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan;

badiiy tarjima jarayonida interdiskursiv birliklarni adekvat qayta yaratishda kontekstual moslashuv, madaniy transfer va pragmatik aniqlashtirish usullaridan foydalanish zarurati asoslanib, ularning amaliy samaradorligi aniqlangan;

interdiskursivlikni tarjimada ifodalashda forenizatsiya va domestikatsiya strategiyalarini uyg‘un qo‘llash orqali matnning lingvomadaniy va kommunikativ yaxlitligini saqlash imkoniyatlari amaliy tahlillar asosida isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot mavzusi bo‘yicha muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning nazariy tadqiqot usullari, lingvomadaniy, diskursiv, pragmatik, kontekstual, qiyosiy-tarjimaviy va interpretativ tahlil usullari bilan asoslanganligi, tanlab olingan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy g‘oyalar va ma’lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o‘tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati badiiy diskursda interdiskursivlikning lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari bo‘yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan turli til tizimlarida interdiskursiv hodisalarning o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy aniqlashda foydalanish mumkinligi hamda tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishlarida diskurs tahliliga oid ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o‘rta maxsus, umumta’lim tizimida diskurs va interdiskurs hodisalarini farqlash, badiiy matnlarda interdiskursivlikni aniqlash va tahlil qilish, tarjima jarayonida madaniy transfer mexanizmlarini qo‘llash, adabiy manbalarni qiyosiy-diskursiv tahlil qilish bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, “Diskurs tahlili”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Madaniyatlararo kommunikatsiya”, “Lingvokulturologiya”, “Zamonaviy tarjimashunoslik” fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, shuningdek, badiiy tarjima amaliyotida interdiskursivlikni samarali ifodalashga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqishda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy tarjimada interdiskursivlik voqelanishining lingvomadaniy parametrlarini aniqlash va ularni tarjima jarayonida qayta yaratish mexanizmlarini ishlab chiqish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

badiiy tarjimada interdiskursivlikning lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo‘lishida kommunikativ-funksional yondashuvning ustuvorligi hamda

diskurslararo aloqadorlikning semantik-pragmatik, lingvomadaniy va kommunikativ-funksional sathlarda, xususan, turli diskurslarga xos lisoniy markerlar, madaniy kodlar va pragmatik vazifalarning o‘zaro integratsiyalashuvida namoyon bo‘ladigan tizimli xarakterga egaligiga oid nazariy xulosalaridan 2021–2023-yillarda “Musiqa va san’at” o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyiha doirasida “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ni yaratishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2026-yil 10-fevraldagi 1/04-15-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz va o‘zbek badiiy tarjimasida interdiskursivlikni ta’minlashga xizmat qiladigan domestikatsiya va forenizatsiya strategiyalari milliy raqs san’atiga oid birliklarni ingliz va o‘zbek tillariga tarjima qilishga hamda tarjimada lingvomadaniy transferning saqlanishida samarali qo‘llanilgan;

interdiskursivlikning semantik va pragmatik markerlari badiiy matnda kontekstual omillar, muallif niyati va madaniy kodlar ta’sirida voqelanishi hamda ularning kommunikativ yuklama hosil qilishdagi roli va badiiy tarjimada interdiskursiv birliklarni qayta yaratishda kontekstga moslashish, pragmatik adekvatlik va mualliflik pozitsiyasini saqlash kabi tarjima mexanizmlarining ustuvorligi bilan bog‘liq xulosalardan Buxoro davlat universitetida Toshkentdagi AQSH Elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80021IN3103 raqamli loyiha doirasida tashkil etilgan “Amerika adabiyoti klubi”da o‘tkazilgan Jon Steynbek, Frensis Skott Fitsdjerald va Ernest Xeminguey kabi Amerika yozuvchilarining adabiy mahorati tahliliga bag‘ishlangan ilmiy-ijodiy tadbirlarida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2026-yil 21-apreldagi 06/2973-son ma’lumotnomasi). Natijada, klub ishtirokchilarida badiiy matndagi interdiskursivlikni anglash, mazkur lingvokognitiv kategoriyaning o‘ziga yondosh bo‘lgan boshqa lisoniy kategoriyalardan farqlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga hamda badiiy matnda uchraydigan interdiskursivlik hodisasining tarjimada voqelanishida tarjima strategiyalaridan forenizatsiya va domestikatsiyaning lingvomadaniy omillar bilan shartlanganligi borasidagi bilimlari kengayishiga asos bo‘lib xizmat qilgan;

interdiskursivlikni tarjimada ifodalashda forenizatsiya va domestikatsiya strategiyalarining o‘zaro uyg‘un qo‘llanishi hamda ularning milliy-madaniy asimmetriyani bartaraf etish darajasi, tarjima tilining me’yorlari, o‘quvchining lingvomadaniy kompetensiyasi, fon bilimlari va matnni idrok etish xususiyatlari kabi omillar bilan bog‘liqligiga doir ilmiy xulosalardan O‘ZMTRK “O‘zbekiston” teleradiokanalining, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat”, “Ijod zavqi” eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Teleradio kompaniyasi, “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2026-yil 10-fevraldagi 26-36-17-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvlarda interdiskursiv birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning tarjima jarayonida mahalliylashtirilishi yoki xorijiylashtirilishi bilan bog‘liq masalalar yuzasidagi ayrim mulohazalar tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shulardan, 6 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy tilshunoslikda diskurs va interdiskurs hodisasining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi to‘rt fasldan tarkib topgan, unda diskurs tushunchasining zamonaviy konsepsiyalari, badiiy diskurs va uning madaniy xoslanganligi, interdiskursivlik badiiy matnning dinamik mexanizmi sifatidagi ahamiyati hamda badiiy diskurs tarjimasi xususiyatlariga bag‘ishlangan nazariy qarashlar va masalalar muhokama qilingan.

Diskurs tushunchasiga yondashuvda jahon va o‘zbek olimlari turli nuqtai nazarlardan qarashgan. Xususan, fransuz diskursshunos olimi E.Benvenist diskursni tilning muloqot jarayonida amal qilishi sifatida ta’riflab, uning dinamikligini ta’kidlagan bo‘lsa[4], yana bir shu millat olimi M.Fuko esa diskursning ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarini inobatga olib, uni belgilar majmui sifatida emas, uni ma’lum bir davrda, ma’lum bir ijtimoiy muhitda nutqning ta’sir shartlarini belgilaydigan tarixiy qoidalar majmui sifatida ta’riflaydi[5]. O‘zbek tilshunos olimlaridan Sh. Safarov, D.Ashurova, M.Saparniyazova, D.Xudoyberganovalar diskursni matn va diskurs munosabati hamda integrativ yondashuv asosida o‘z ishlarida yoritganlar[6]. Rus tilshunoslik olimlaridan bu mavzuni yoritishda ko‘plab salmoqli ishlar olib borilgan. Jumladan, Y.Stepanov, V.Chernyayevskaya, V.Karasik, N.Arutyunova, V.Milovidov, M.Makarov va yana bir qator olimlar diskursga turli rakursdan ta’rif berib, bu fenomenni chuqur tahlil qilganlar. Ayniqsa ushbu dissertatsion ishni yoritishda V.Chernyayevskayaning diskurs – matn(lar)ni situativ kontekst bilan uzviy bog‘liqlikda tushunishdir: ijtimoiy, madaniy-tarixiy, mafkuraviy, psixologik va boshqa omillar majmui bilan birgalikda, muallifning kommunikativ-pragmatik va kognitiv maqsadlari tizimida, adresat bilan o'zaro ta'sir jarayonida, til

[4] Бенвенист Э. Общая лингвистика. – 3-е изд. – Москва: Эдиториал УРСС, 2009. – 448 с.

[5] Foucault M. The Archaeology of Knowledge. – London; New York: Routledge, 2013. – 256 p.

[6] Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 112 b.; Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 249 b.; Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2011. – 24 b.; Ashurova D.U. Text Linguistics. – Tashkent: Tafakkur qanoti, 2012. – 77 p.

birliklarining matnda o‘ziga xos tartiblanishini belgilaydigan jarayon[7] sifatidagi integrativ ta’rifi ahamiyatga molik.

Badiiy diskursning madaniy xoslanganligi va uning prinsipial ochiq tizim sifatidagi tabiati badiiy matnning turli diskurs turlari bilan kesishishiga, ularning belgi va kodlarini o‘z ichiga olishiga imkon yaratadi[8]. Diskursning matnning statik xususiyatidan farqli ravishda uning dinamikligini ta’kidlagan olimlar asosan bir turdagi diskursning boshqa turdagi diskurslar bilan o‘zaro muloqotga kirishuvchanligiga, ya’ni interdiskursivlik kategoriyasiga ishora qilishgan. Interdiskurs atamasiga nisbatan bir qator adabiyotlarda bir qancha tilshunos olimlar tomonidan izohlar keltirib o‘tilgan. Xususan, ingliz olimi, tanqidiy diskurs tahlili asoschilaridan N.Feyrklo interdiskursni “turli xil diskurslar va janrlardan tashkil topgan matn tuzilishi”ni ifodalash uchun qabul qilingan fenomen sifatida qayd etgan[9]. M.Fuko nazarida diskurs, avvalo, matn korpusi emas, balki ko‘plab matnlar orqali nutqiy tuzilma yoki ushbuning elementlari o‘rtasidagi munosabatlardir.

Interdiskurs diskurslar o‘rtasidagi chegarada shakllanadi, ya’ni o‘z ichiga nafaqat diskurslar haqidagi, balki diskurslararo munosabatlar haqidagi axborotni ham qamrab oladi. Rus olimlaridan V.Chernyavskaya interdiskursivlikni aniq matn ifodalanishidan oldin yuzaga keladigan kognitiv jarayonlarni tavsiflaydigan turli bilim tizimlari, madaniy kodlar va kognitiv strategiyalarning o‘zaro ta’sirini aks ettiradigan kognitiv kategoriya sifatida ta’riflaydi[10]. Diskursshunos olim I.Shevchenko interdiskursivlik masalalarini kognitiv-kommunikativ nuqtai nazardan o‘rganadi va u interdiskursivlikni matnni idrok etishdagi yaxlit giperkategoriya sifatida talqin qilishni taklif etib, unga turli tipdagi diskurslarga mansub diskurs hosil qiluvchi konseptlarning “ustma-ust tushishi” natijasi deb ta’rif beradi[11]. J.Vu esa interdiskursivlikni bitta matn doirasida institutsional va ijtimoiy ma’nolar bilan bog‘liq turli janrlar, diskurslar yoki uslublarning aralashuvi sifatida ta’riflaydi[12]. O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi doirasida interdiskurs atamasiga M.Safarova o‘zining “Pretsedent tuzilmalar siyosiy diskursda faollashuvining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (nemis va o‘zbek tillari misolida)” nomli falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida “interdiskurs” tushunchasiga qisman to‘xtalib, ma’lum bir diskurs yoki uning biron bir bo‘lagining boshqasi tarkibiga kiritilishini “interdiskurs” deb ataydi hamda boshqa matnlarning “izi” ko‘rinadigan nutqiy tuzilma sifatida tavsiflash mumkinligini ham qo‘shimcha qiladi[13].

---

[7] Чернявская В.Е. Лингвистика текста: поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность: учебное пособие. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 248 с.

[8] Чернявская В.Е. Лингвистика текста: поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность: учебное пособие. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 248 с.

[9] Baker P., Ellece S. Key Terms in Discourse Analysis. – London: Continuum, 2010. – 240 p.

[10] Чернявская В.Е. Лингвистика текста: поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность: учебное пособие. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 248 с.

[11] Шевченко В.Д. Семиотика взаимодействия дискурсов в масс-медиа // Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики. 2023. № 1. – С. 172–181. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/semiotika-vzaimodeystviya-diskursov-v-mass-media.

[12] Wu J. Understanding Interdiscursivity: A Pragmatic Model // Journal of Cambridge Studies. – 2011. – Vol. 6. – No. 2–3. – P. 95–114.

[13] Safarova M.J. Pretsedent tuzilmalar siyosiy diskursda faollashuvining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari... diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – B. 15.

Badiiy adabiyot interdiskursivlik xususiyati bilan tavsiflanadi. Bu holat badiiy adabiyotning real yoki muqobil dunyoni uning barcha murakkabligi va ziddiyatlari bilan aks ettirishi hamda mazkur olamning shunchaki yagona diskurs doirasiga sig‘masligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, muallif o‘z o‘quvchisining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olishi va matnning unga tushunarli bo‘lishini (kommunikativ ochiqligini) ta’minlash haqida qayg‘urishi lozim[14]. Badiiy adabiyotda turli diskurslar qorishuvini qo‘llash badiiy matnlarning kitobxon tomonidan real va jonli qabul qilinishiga hamda estetik va ijtimoiy ahamiyatga molikligini ko‘rsatadi[15].

Rus olimasi V.Chernyavskaya turli diskurs sohalarning o‘zaro ustma-ust tushishi, bir-biriga kirishishi haqida lingvistik nuqtai nazardan so‘z yuritganda, tabiiy (spontan), ya’ni kommunikativ jihatdan shartlangan interdiskursivlikni hamda sahnalashtirilgan (maqsadli) diskurs almashinuvini ajratib ko‘rsatadi. Tabiiy, spontan interdiskursivlik umuman olganda muloqotning ajralmas xususiyati hisoblanadi, chunki ko‘plab diskurslarni bir vaqtning o‘zida tavsiflovchi barcha til elementlari, tuzilmalar, munosabatlar va strategiyalar, ta’rifga ko‘ra, interdiskursivdir. Maqsadli (sahnalashtirilgan) interdiskursivlik holatida “matn sathida til birliklarining shunday o‘ziga xos o‘zaro bog‘liqligi yaratiladiki, u qabul qiluvchi ongida bir diskurs turidan boshqasiga o‘tishni keltirib chiqaradi”. Boshqacha aytganda, matnning o‘ziga xos rasmiylashtirilishi tufayli retsipient ongida “boshqa bilimlar tizimiga, kodlarga, boshqa fikrlash turiga “almashinish” sodir bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, maqsadli interdiskursivlikning badiiy matnlardagi tahlili juda samarali hisoblanadi. Lingvistik tahlil nuqtai nazaridan, bu qaysi diskurs turiga xos prototipik elementlar boshqa diskursga kiritilmoqda, bu qanday kommunikativ maqsadda amalga oshirilmoqda hamda ushbu modellashtirilgan interdiskursivlik matnni idrok etish jarayonida qaysi shakllarda namoyon bo‘ladi kabi masalalar bilan bog‘liq[16].

Interdiskursivlik muammolarini tarjima faoliyati doirasida hal etishda mazkur hodisani yuzaga keltiruvchi diskurslar chegarasini inobatga olish muhim. Tarjima bir vaqtning o‘zida tillararo, madaniyatlararo va kommunikativ faoliyat sifatida tarjimon asliyat matndagi diskursiv belgilarni anglash uchun boshqa madaniyatga xos bilim va nutq amaliyotlariga murojaat qiladi. Biroq tarjimaning o‘zi madaniyatlararo faoliyat ekanini asl badiiy matnda mavjud interdiskursivlik bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Bunda matnni yoki interdiskursiv birlikni qayta yaratishdagi umumiy madaniy-kommunikativ yo‘nalish va tarjima usuli mazkur jarayonda tarjima strategiyalarini ta’minlaydi.

Tarjima strategiyalari bo‘yicha keng tarqalgan bo‘linish – lokal va global strategiyalardir. Lokal strategiyalar alohida til birliklari yoki grammatik tuzilmalarni tarjima qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, global strategiyalar matn uslubi yoki manba matnning ayrim jihatlarini kuchaytirish yoki kamaytirish kabi kengroq masalalarga taalluqlidir. So‘nggi yillarda Lorens Venutining ishlari global tarjima

[14] Белоглазова Е.В. Когнитивный механизм интердискурсности //Вопросы когнитивной лингвистики. – 2009. – №. 2. – С. 64-72.

[15] Wu J. Understanding Interdiscursivity: A Pragmatic Model // Journal of Cambridge Studies. – 2011. – Vol. 6. – No. 2–3. – P. 95–114.


[16] Чернявская В.Е. Лингвистика текста: поликодовость, интертекстуальность, интердискурсивность: учебное пособие. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 248 с.

strategiyalarini o‘rganishda katta ta’sir ko‘rsatdi. U forenizatsiya (xorijiylashtirish – manba matnning lingvomadaniy o'ziga xosligini saqlab, maqsad o'quvchini boshqa madaniyat ko'rinishiga yaqinlashtirish) va domestikatsiya (mahalliylashtirish – matnni maqsad madaniyati normalariga moslashtirish) strategiyalarini muhokama qiladi[17]. Bu tushunchalar F.Shleyermaxerning tarjimon o‘quvchini muallif tomon olib boradimi yoki muallifni o‘quvchi tomon olib keladimi degan g‘oyasiga asoslanadi[18]. L.Venuti forenizatsiya (xorijiylashtirish) strategiyasini qo‘llab-quvvatlaydi va uni etnosentrik tarjima amaliyotiga qarshi madaniy strategiya sifatida baholaydi. Badiiy diskurs tarjimasi nazariyasida eng muhim strategik qarama-qarshiliklardan biri forenizatsiya va domestikatsiya o‘rtasidagi munosabatdir. Ushbu ikki yondashuv tarjimada madaniy farqlarni saqlash yoki ularni moslashtirish masalasini hal etishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa badiiy matnlarda interdiskursivlikni qayta yaratish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bob **“Badiiy matn tarjimasida interdiskursivlik va madaniy transfer muammosi”** deb nomlangan bo‘lib, unda badiiy matndagi interdiskursivlikning semantik va pragmatik markerlari, badiiy tarjimada interdiskursivlikni qayta yaratish mexanizmi hamda lingvomadaniy tarjima paradigmasida madaniy transfer muammolari o‘rganilib, tahlillar amalga oshirilgan. Badiiy matn alohida bir diskursga mos kelmaydi, u boshqa turdagi diskurslarni o‘zlashtirishga, boshqarishga yoki shaklini o‘zgartirishga moyilligi sababli o‘zida diskurslar birikmasini ifoda etadi.

Badiiy matndagi interdiskursivlikning semantik markerlari faqat tabiiy emas, balki muallifning ongli niyati bilan yuzaga keltirilgan maqsadli (sahnalashtirilgan) interdiskursivlik belgilari asosida ham tadqiq etiladi. Jumladan, U.Tevisning “Qirolichaning yurishi” asaridan olingan parchada maishiy, siyosiy-mafkuraviy va rasmiy diskurslarning o‘zaro muloqoti tahlil qilinadi: asar qahramoni Betning ish qidirishi masalasida Uitli xonimning irqiy stereotipga asoslangan rad javobi siyosiy diskursning markeri sifatida *(“The only girls of your age who work are colored”)*, AQSH Shaxmat Federatsiyasining shartnomasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos keltirish *(“$185 in prizes. Entry fee: $5.00. USCF members only”)* esa rasmiy-institutsional diskursning maishiy diskurs foniga singib kelishini ko‘rsatadi. Xuddi shu asarning maktab sahnalarida pedagogik diskurs qatnashuvchilarining tipik nutq modellari *(“Does anyone know what a binomial is?”, “Can anyone say it verbatim?”)* fon diskursi vazifasini bajarsa, Beth ning Pifagor teoremasi (*In any right triangle the square of the hypotenuse is equal to the sum of the squares of the other two sides)* va binom tenglamani (*A binomial is a mathematical expression containing two terms.)* so‘zma-so‘z ta’riflab berishi ilmiy diskursning aniqlik va mutlaq haqiqat talab qiluvchi xususiyatini voqelantiradi. Badiiy matnda interdiskursivlikni voqelantiruvchi mezonlar quyidagi tasnifga ega:

[17] Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. – London: Routledge, 2008. – 336 p.
[18] Schleiermacher F.D.E. On the Different Methods of Translating // The Translation Studies Reader / ed. by L. Venuti. – 3rd ed. – London: Routledge, 2012. – P. 43–63.



3.2-rasm. Badiiy matnda interdiskursivlikni voqelantirib keluvchi mezonlar

Maqsadli interdiskursivlik bir vaqtning o‘zida ham kognitiv, ham kommunikativ-pragmatik kategoriya sifatida namoyon bo‘lib, uning asosiy mexanizmi “me’yor bilan o‘yin”ga, ya’ni o‘quvchi ongining bir diskurs tizimidan boshqasiga ko‘chishiga asoslanadi. Maqsadli interdiskursivlikning asosiy kommunikativ-pragmatik vazifalari sifatida badiiy effekt yaratish, retsipient e’tiborini jalb qilish, ishontirish va baholovchi axborot berish ajratib ko‘rsatiladi. Diskursiv qayta kodlash jarayonida uzatilayotgan axborotning tabiati o‘zgaradi: I.Galperinning tasnifiga tayangan holda faktual ma’lumot (tarixiy diskursga xos), konseptual ma’lumot (badiiy diskursga xos) va matn ostidagi ma’lumot farqlanadi hamda bir diskursning axborot turi boshqa diskurs tarkibiga singdirilganda qayta semantizatsiya sodir bo‘lishi ko‘rsatiladi. Ushbu qonuniyat U.Tevisning “Qirolichaning yurishi” asaridan olingan parchada yaqqol namoyon bo‘ladi: *shaxmat terminlari (King, knight, pawn, queen, rooks, bishops)* o‘z diskursiv muhitida faktual ma’lumot tashuvchi bo‘lsa, badiiy diskurs tarkibida ular konseptual ma’lumotga ko‘chadi va qahramon Betning sinfxona muhitini shaxmat taxtasi sifatida idrok etishini, ya’ni uning intellektual dunyoqarashini ochib beruvchi semantik markerlarga aylanadi. Shu bilan birga, parchaning oxirida inkor shaklining takrorlanishi *(“she didn’t need Jolene... It didn’t matter how she felt about it. She didn’t need Jolene”*) shaxsiy diskursning pragmatik dominantlikka o‘tishini va qahramonning yashirin hissiy holatini ifodalaganligini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotidan O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi “Sovchilar” novellasida esa tibbiy diskurs markerlari – “*hozirgi zamon tibbiyoti”, “vrach”, “shizofreniya kasalligi”, “naslga o'tadigan dard”, “genetika”* – badiiy diskurs doirasiga singdiriladi. Ushbu tibbiy terminlarning pragmatik ahamiyati shundaki, ular ilmiy isbot uchun emas, balki qahramonning sevgi va biologik xavf o‘rtasidagi ziddiyatdagi mas’uliyatli tanlovini nisbiy asoslash va o‘quvchi ongida bu tanlovga nisbatan baholovchi munosabat hamda yashirin ishontiruvchi ta’sir yaratish uchun qo‘llaniladi. Ta’kidlash joizki, interdiskursivlikning pragmatik markerlari o‘z-o‘zicha emas, balki ularning yig‘indisi o‘quvchi ongida kognitiv o‘tish uchun zamin yaratadi, muallifning persuaziv strategiyasini amalga oshiradi va badiiy matnning ta’sir kuchini sezilarli darajada oshirgan holda tizimli birikuvda ishlaydi.

Badiiy diskurs tarjimasi diskurs nazariyasi, badiiy diskursning madaniy xoslanganligi va interdiskursivlik mexanizmlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqishda asosiy e’tibor “muallif – matn – kitobxon” kommunikativ tarjima kontekstida qanday kengayishiga qaratiladi: tarjimon ushbu zanjirga uchinchi kommunikativ subyekt sifatida kirib keladi va “muallif – asliyat matni – tarjimon – tarjima matni – tarjima matni o‘quvchisi” beshligini yuzaga keltiradi. Tarjimon ikki tomonlama rolni egallab, asliyat tilidagi qabul qiluvchi (Receiver1) sifatida matnni semantik va pragmatik jihatdan talqin qiladi, yuboruvchi (Sender) sifatida esa maqsad tilidagi o‘quvchilarga (Receiver2) yangi diskurs yaratadi[19]. Bunda tarjimon faoliyatining ikki turi ajratib ko'rsatiladi: birinchisi, ikki lingvomadaniyat chegarasida kechadigan “tashqi interdiskursiv faoliyat” – tarjimon o‘zi mansub lingvomadaniyat va o‘zlashtirilgan o'zga lingvomadaniyat orasida harakat qiladi; ikkinchisi, manba matn ichida turli diskurs turlari kesishgan paytda vujudga keladigan “ichki interdiskursiv faoliyat” – muallif muayyan diskursiv yo‘nalishdan erkin chekinib, turli diskursiv amaliyot elementlaridan foydalanganda tarjimon ushbu murakkab diskursiv muhitni boshqarishi shart bo'ladi[20].

“Dunyoning ishlari”dan olingan “Qanoat” novellasi muallif tomonidan ataylab to‘rtta diskurs turining o‘zaro ustma-ust tushib, ularning interdiskursivligi asosida qurilgan. Matndagi har bir diskurs turi shunchaki uslubiy bezak sifatida mavjud bo‘libgina qolmay, ularning har biri alohida madaniy yukni tashiydi hamda muallifning pragmatik niyati aynan ushbu diskurslar o‘rtasidagi munosabat orqali voqelanadi. Agar tarjima ushbu to‘rtta diskurs turidan birortasini voqelantirmasdan qolsa, yoki faqat voqeaviy mazmunni saqlab qolib, diskursiv qatlamlarni yo‘qotsa, hikoyaning asosiy axloqiy strukturasi ham yemiriladi. Interdiskursivlik dekorativ unsur emas – u matn ma’nosini tashkil etuvchi konstitutiv mexanizmdir. Qayd etish joizki, badiiy tarjimada diskurslar xilma-xilligini saqlashda to‘liq ekvivalentlik emas, balki diskurslararo adekvatlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tarjimon asliyat matnidagi interdiskursiv tuzilmani to‘liq ko‘chirish o‘rniga, uning badiiy-estetik ta’sirini tarjima tildagi o‘quvchi uchun qayta yaratishga qaratilgan strategik tanlovlarni amalga oshiradi.

Ishning **“Interdiskursivlik tarjimasida lingvomadaniy parametrlar va strategiyalar”** deb nomlangan uchinchi bobida badiiy matnda interdiskursivlikning forenizatsiya orqali tarjimada berilishi, badiiy tarjimada interdiskursivlikning domestikatsiya strategiyasi orqali ifodalanishi va tarjimada interdiskursivlikni qayta yaratishda lingvomadaniy parametrlar va strategik tanlov tahlil qilingan. O‘tkir Hoshimovning *“Dunyoning ishlari”* qissasi tarkibidagi *“Qanoat”*, *“Sovchilar”*, *“Gilam paypoq”*, *“Alla”*, *“Kaltakesakning dumi”*, *“Eng og‘ir gunoh”,“Ermon buvaning tilagi”* qissalari, shuningdek, U. Tevisning *“The Queen’s Gambit”* va X. Husayniyning *“And the Mountains Echoed”* romanlaridan olingan parchalar asosidagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interdiskursivlikning lingvomadaniy xususiyatlarini tarjimada qayta voqelantirishda faqat forenizatsiya yoki faqat domestikatsiyaga tayanish har doim ham yetarli natija bermaydi. Asliyat

[19] Jones F.R. Literary Translation // Routledge Encyclopedia of Translation Studies. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2019. – P. 294–299.


[20] Леонтьева К. И. Универсалии поэтического (стихотворного) перевода (на материале русских переводов из англоязычной поэзии XX века) : Дисс… канд. филол. наук. – Тверь, 2013. – 262 с.

